

## VII. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" gi 539- son qaroriga muvofiq korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.


Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2024-yil 1-iyul holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

### Korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni

(1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)  
(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz)

Faoliyat ko'rsatayotgan

Ro'yxatdan o'tgan




#### Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka yega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga yega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.


## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, (2024- yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'tgan yilga nisbatan o'sish surati, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (105,9 %), savdo (91,6 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (96,4 %), tashish va saqlash (90,3 %), qurilish (83,3 %), sanoat (83,3 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (74,2 %), axborot va aloqa (68,5 %) va boshqa turdagi xizmatlar (98,7 %) sohalariga to'g'ri keladi.




### Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- iyul holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)




2024- yil 1- iyul holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni so'ngi besh yilda (37 200 ta) 830 taga ko'payganni quyidagi sohalarida korxonalar sonining sezilarli ko'paygani bilan ifodalash mumkin: savdo – 9 986 tadan 12 992 taga (o'sish 3 006 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatishda – 847 tadan 1 231 taga (o'sish 384 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda – 1 765 tadan 2 056 taga (o'sish 291 ta).

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 34,2 % savdo, 17,4 % sanoat, 6,3 % qurilish, 5,4 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,7 % tashish va saqlash, 3,6 % qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, 1,6 % axborot va aloqa, 3,2 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 24,6 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

### 1-iyul holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar kesimida soni va o'sish sur'ati, %

(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2024- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

### Tadbirkorlik subyektlari soni

### Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi




2024- yil 1- iyul holatiga 31 824 ta faoliyat ko'rsatayotgan tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar soni, shundan xususiy korxonalar – 6 150 ta, oilaviy korxonalar - 4 575 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyat – 20 762 ta, aksiyadorlik jamiyati - 46 ta va boshqa turdagi korxonalar - 291 tani tashkil etadi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning soni

(1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)

### Yillar kesimida soni



### Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Mas'uliyati cheklangan jamiyati – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'ladilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlarni uchun o'zlariga qo'shgan hissalarini qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

### Yangi tashkil yetilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(yanvar-iyun oylarida)


Farg'ona shahar	528
Qo'qon shahar	290
Marg'ilon shahar	209
Oltiariq tumani	194
Qo'shtepa tumani	180
Rishton tumani	178
Farg'ona tumani	169
Quvasoy shahar	165
Bag'dod tumani	155
Uchko'prik tumani	154
Quva tumani	150
Toshloq tumani	144
O'zbekiston tumani	144
Yozyovon tumani	136
Buvayda tumani	135
Beshariq tumani	121
Dang'ara tumani	111
So'x tumani	91
Furqat tumani	87

2024- yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar 3 341 tani tashkil etib, hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning ulushi Farg'ona shahar (16,8%), Qo'qon shahar (10,2%), Marg'ilon shahar (7,7%), Oltiariq tumani (5,8%), Uchko'prik tumani (5,0%), Farg'ona tumani (4,7%), O'zbekiston tumani (4,6%), Quva tumani (4,5%), Toshloq tumani (4,4%), Dang'ara tumani (4,4%), Rishton tumani (4,3%), Buvayda tumani (4,1%), Bag'dod tumani (3,9%), Qo'shtepa tumani (3,8%), Quvasoy shahar (3,7%), Beshariq tumani (3,5%), So'x tumani (3,0%), Yozyovon tumani (3,0%), Furqat tumani (2,6%) hissalariga to'g'ri keladi.


### Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz, 2024- yil 1-iyul holatiga ko'ra birlikda)

Yillar kesimida soni




Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan

### kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(1-iyul holatiga ko'ra birlikda)



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish




Boshqa turlar

Hududiy kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Farg'ona shahrida (16,6 foiz), Qo'qon shahri (10,4 foiz), Marg'ilon shahri (8,0 foiz), Oltiariq (6,1 foiz) va Uchko'prik (5,1 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50,0 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda.


Ma'lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.

## Hududlar bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 1-iyul holatiga ko'ra birlikda)



### Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar

2024- yil 1- iyul holatiga ro'yxatdan o'tgan chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar soni 765 tani tashkil etdi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 121 taga yoki 118,8 %ga o'sgan.



## Davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar to'g'risida ma'lumot

2024- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.


Shuningdek, chet el investitsiyasi ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 222 tasi qo'shma korxonalar, 248 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy va qo'shma  
korxonalar soni to'g'risida ma'lumot**  
(2024- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



2024-yil 1-iyul holatiga chet el investitsiyasi ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 470 ta korxonalardan 222 tasi qo'shma korxonalar, 248 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.


## Faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanishi (1- iyul holatiga ko'ra, yillar kesimida, birlikda)




### Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2024- yilning 1- iyul holatiga 7 876 tani tashkil etib, ulardan 4 575 tasi yoki 58,1 % faoliyat yuritmoqda.

### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar to'g'risida ma'lumotlar (1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni,**  
(2024- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



**Oilaviy korxon** – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxon ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxon ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir. Oilaviy korxon faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.